

Hikoyani o'qing va mazmunini so'zlab bering. Hikoya mazmuniga mos rasm chizing.

4-Mavzu: Zumrad bahor

Dars maqsadi:

- Quddus Muhammadiyning "Ko'klamoy" she'ri bilan tanishtirish;
- Bahor faslida tabiatdagi o'zgarishlar haqida ma'lumot berish;
- Ma'nodosh so'zlar topishga o'rgatish;
- Muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish.

Tayanch so'zlar: O'ktamjon, Ko'klamjon, dala-bog', bahor gullari, tabiat uyg'onishi.

Didaktik materiallar: mavzuga oid rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkillashtirib olish.

Faollashtiruvchi mashq: Berilgan so'zlar bir-biriga bog'lab gap tuzing.
bog', kurtak, erta.

II. O'tilganlarni takrorlash. (7 daqiqa)

Hikoyani o'qitiladi va mazmunini so'zlab beriladi.

III. Darsning asosiy qismi. (30 daqiqa)

Amaliy topshiriq. Yashiringan so'zni toping.

B+A+T+H+O-T+R

Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. Sizda qaysi so'z hosil bo'ldi?
2. Bu so'zni qanday topdingiz?

Mavzuni tushuntirish.

Suhbat o'tkaziladi.

1. Bahor so'ziga ta'rif bering.
2. Bahorda tabiatda qamday o'zgarishlar bo'ladi?

3. Bahor so'zining o'rniga yana qanday so'zni ishlatsa bo'ladi?

Matn ustida ishlash.

She'r muallifi haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Quddus Muhammadiy 1907-yili Toshkentda dehqon oilasida dunyoga keldi. Shiorning **"O'quvchiga esdalik", "She'r va ertaklar", "Orzu", "Bahor keldi", "Dunyoda eng kuchli nima?", "Qirq o'g'il va qiz", "Bizning do'stlarimiz", "Sen tug'ilgan kun", "Yangi uy", "Mehribon do'stlar", "Qo'ng'izboy bilan Sichqonboy", "Tugmacha", "Tanlangan asarlar"** kabi o'ttizdan ortiq kitoblari bosilib chiqdi.



Quddus Muhammadiyning **"Ko'klamjon"** she'ri o'quvchilarga navbatma-navbat o'qitiladi. She'r matni yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. She'r nima haqida ekan?
2. O'ktamjon Ko'klamjonni qidirib qayerga chiqdi?
3. U Ko'klamjonga nima deb murojaat qildi? Shu joyini she'rdan topib o'qing.
4. Ko'klamjon kelishi bilan nima o'zgarar ekan?
5. Ko'klamjonning so'zlarini she'rdan topib o'qing.
6. She'rda qaysi gullar nomi tilga olingan? Siz yana qanday gullar nomini bilasiz?

Mashq daftari bilan ishlash.

"Bog'lang" mashqi.

Ustunda berilgan so'zlarni ma'nodoshi bilan bog'lang.

Yasanmoq	ulkan
olam	bahor
katta	bezanmoq
uzoq	jahon
ko'klam	olis

"Adashgan harflar" mashqi.

Adashgan harflar o'z o'rniga qo'yib maqollar o'qiladi.

Gullar nomi topiladi va krossvord yechiladi: 1. lola; 2. nastarin; 3. atirgul; 4. moychechak; 5. binafsha; 6. nilufar; 7. boychechak.

Darslikdagi rasm asosida bahor belgilari aytiladi.

Topishmoqlar o'qiladi va javobi topiladi.

Tez aytish ayttiriladi.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3daqiqqa)

- Bahor fasli haqida nimalarni bilib oldingiz?
- Darsda nimalarni bajardik?

V. Uyga vazifa. (2 daqiqqa)

She'rni ifodali o'qing. Siz bahorni qanday tasavvur qilasiz? 2 ta gap tuzing.